



## O'ZBEKISTONDA MAHALLIY BYUDJETLARNING DAROMADLAR BAZASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

**Abduvoxidov Akmal Abdulazizovich**

Guliston davlat universiteti

**Qodirova Dilafruz Olimovna**

Guliston davlat universiteti

**Obilov Mirkomil Rashidovich**

Guliston davlat universiteti

**Annotatsiya.** Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish, hududlar o'rtasidagi tafovutlarni qisqartirish, mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlash bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, Taraqqiyot strategiyasida ham hududlar iqtisodiyotini yaqin istiqbolda 1,6 baravar oshirish vazifasining belgilab berilishi hududlarni rivojlantirish imkoniyatlarini chuqur tahlil qilishni talab qiladi. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur maqolada mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlash yo'llari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** milliy iqtisodiyot, byudjet siyosati, mahalliy byudjet, byudjet daromadlari, byudjet xarajatlari, soliq ma'murchiligi, daromadlar bazasi, byudjetlararo transfertlar, o'sish drayverlari, o'sish nuqtalari, aholi turmush darajasi.

## ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ДОХОДНОЙ БАЗЫ МЕСТНЫХ БЮДЖЕТОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Абдувохидов Акмаль Абдулазизович**

Гулистанский государственный университет

**Кадырова Дилафруз Олимовна**

Гулистанский государственный университет

**Обилов Миркомил Рашидович**

Гулистанский государственный университет

**Аннотация.** Социально-экономическое устойчивое развитие регионов, сокращение различий между регионами, укрепление доходной базы местных бюджетов является одним из важных направлений государственной экономической политики, реализуемой сегодня в Узбекистане. В частности, в Стратегии развития определение задачи увеличения экономики регионов в 1,6 раза в ближайшем будущем, такая постановка задачи требует глубокого анализа возможностей развития регионов. Исходя из этого, в данной статье анализируются пути укрепления доходной базы местных бюджетов.

**Ключевые слова:** национальная экономика, бюджетная политика, местный бюджет, доходы бюджета, расходы бюджета, налоговое администрирование, доходная база, межбюджетные трансферты, драйверы роста, точки роста, уровень жизни населения.

## WAYS TO IMPROVE THE REVENUE BASE OF LOCAL BUDGETS IN UZBEKISTAN

**Abdovokhidov Akmal Abdulazizovich**

*Gulistan State University*

**Kadyrova Dilafruz Olimovna**

*Gulistan State University*

**Obilov Mirkomil Rashidovich**

*Gulistan State University*

**Annotation.** *Socio-economic sustainable development of regions, reduction of differences between regions, strengthening of the revenue base of local budgets is one of the important directions of the state economic policy implemented in Uzbekistan today. In particular, the Development Strategy defines the task of increasing the economy of the regions by 1.6 times in the near future, such a statement of the task requires a deep analysis of the development opportunities of the regions. Based on this, this article analyzes ways to strengthen the revenue base of local budgets.*

**Keywords:** *national economy, budget policy, local budget, budget revenues, budget expenditures, tax administration, revenue base, inter-budget transfers, growth drivers, growth points, standard of living of the population.*

### **Kirish.**

Yetakchi mamlakatlarda byudjet siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida byudjet xarajatlarining optimallashtirilishi, manzilliligi va natijaga erishilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Byudjet xarajatlarining manzilliligini ta'minlash orqali natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish amaliyotini joriy etishga erishish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada, o'rta muddatli byudjetlashtirish omili asosiy usullardan biri ekanligi ko'plab davlatlar tajribasidan ma'lum bo'lmoqda.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va inflyatsiya darajasini 2023-yilgacha bosqichma-bosqich 5 foizgacha pasaytirish; byudjet taqchilligini qisqartirish va 2023 yildan yalpi ichki mahsulotga nisbatan uning 3 foizdan oshib ketmasligini ta'minlash; har bir tuman byudjetining kamida 5 foizini "Fuqarolar byudjeti" dasturi doirasida aholining takliflari asosida eng dolzarb muammolarni yechishga sarflashni tashkil qilish; davlat qarzini boshqarishda yiliga yangi jalb qilingan tashqi qarz miqdori 4,5 milliard AQSh dollaridan oshib ketmasligini ta'minlash kabi ustuvor vazifalarning belgilab berilishi byudjet sohasida tizimli islohotlarni amalga oshirishni taqozo etadi (Farmon, 2022). Xuddi shu kabi, 2023-2025-yillarga mo'ljallangan Fiskal strategiyada ham kelgusi o'rta muddatli davrda fiskal siyosat tashqi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyatning O'zbekistonga ta'sirini yumshatishga, makroiqtisodiy va fiskal barqarorlikni ta'minlashga, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, aholining muhtoj qatlamini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uzoq muddatli inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilishi ko'rsatib o'tilgan.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Bugungi kunda byudjet tizimida mahalliy byudjetlarning o'rnini kengaytirish, ularning daromad bazasini oshirish yo'llari mamlakatimiz iqtisodchilari tomonidan keng o'rganilmoqda. Xususan, Burxanov (2020) mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlashda mahalliy soliqlarni birlashtirish amaliyotini kuchaytirish lozimligini, shu bilan bir qatorda QQS stavkasini bosqichma-bosqich pasaytirib borish amaliyotini qo'llashni taklif qiladi. Meyliyev (2021) mahalliy byudjetlarning daromad bazasini oshirishda mahalliy davlat boshqaruvi idoralarning tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash lozimligini ta'kidlaydi.

Xayriddinov (2011) har bir mahalliy ma'muriy hududdagi soliq tizimi tomonidan undirilishi lozim bo'lgan umumdavlat soliqlari bo'yicha soliq summalarining ma'lum bir qismini bevosita mahalliy byudjetlarning ixtiyorlariga birlashtirilgan daromadlar ko'rinishida qat'iy hissada va doimiy asosda qoldirilishi oldindan belgilanib qo'yilishi kerakligini ta'kidlaydi. Bunda asosiy urg'u daromadlarni byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida qayta taqsimlashning asosiy kombinatsion variantlaridan biri bo'lgan me'yoriy ajratmalar tizimini takomillashtirishga qaratilmoqda. Shuningdek, muallif bozor iqtisodiyotining talablaridan kelib chiqqan holda, mahalliy byudjetlar daromad bazalari barqarorligini ta'minlashda ularning birlashtirilgan daromadlariga ustuvorlik berish maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi.

Islamqulov (2016) respublikamizda davlat byudjeti daromadlari barqarorligi, turli darajadagi byudjet daromadlari mutanosibligini ta'minlash maqsadida markaziy va mahalliy davlat

hokimiyatlarining moliya-byudjet, byudjet-soliq sohaslarida vakolatlarini aniq belgilab olish lozimligini ta'kidlaydi. Bunda muallif byudjet tizimining bo'g'inlari o'rtasida daromad vakolatlari va xarajat majburiyatlarini optimal taqsimlash tizimini mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash gorizontalida amalga oshirishni ilgari suradi.

Usmonov (2014) esa byudjet daromadlarini rejalashtirishning ahamiyati to'g'risida to'xtalib, hozirgi kunda byudjet daromadlarini rejalashtirish uchun zarur ma'lumotlar bazasini etarli va sifatli darajada shakllantirish hamda bu boradagi huquqiy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish va byudjet daromadlarini rejalashtirish jarayoni tartibi, usuli, muddati hamda ishtirokchilar vazifalarini aniq ko'rsatib beruvchi huquqiy hujjat qabul qilish lozimligini ilgari suradi.

Toshmatov (2017), mahalliy byudjetga soliq tushumlarini oshirishga yo'naltirilgan bir qator tadbirlarni keltirib, unda soliqlarni turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlash tizimini mahalliy hokimiyatlarning soliq tushumlarini maksimalashtirishdan manfaatdorligini ta'minlash kontekstida takomillashtirish bo'yicha fikr mulohazalarni berib o'tadi. Shuningdek, hududiy soliq salohiyatni baholash va mahalliy soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish zarurligini ilgari suradi.

Yuqorida tilga olib o'tilgan iqtisodchilar tomonidan mahalliy byudjetlarning mustaqilligini soliqlarni birlashtirish orqali oshirish oshirish yo'llari o'rganilgan bo'lsada, hududlarning iqtisodiy rivojiga turtki bo'luvchi omillar etarlicha o'rganilmagan.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqotning metodologik asosi bo'lib O'zbekiston Respublikasida byudjetlararo munosabatlarni tartibga solish, mahalliy byudjetlarning daromad bazasini ko'paytirish yo'nalishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlari va me'yoriy xujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining fundamental asarlari xizmat qiladi.

Ilmiy izlanish jarayonida tadqiqot olib borishning guruhlash, tizimli qiyosiy taxlil va tizimli yondashuv, korrelyatsion, regression, ekspert va taqqoslama tahlil, bashoratlash, ma'lumotlarga statistik ishlov berish, guruhlash va shu kabi zamonaviy usullardan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

2020-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va xalq deputatlari mahalliy kengashlarining byudjet sohasidagi vakolatlarini kengaytirish, byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning mas'uliyatini yanada oshirish, mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirish va mablag'laridan foydalanishda mahalliy davlat hokimiyati organlarining erkinligini ta'minlashga qaratilgan yangi byudjet tizimi joriy etildi. Ilk bor, "2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan mahalliy byudjetlar xarajatlari xalq deputatlari mahalliy kengashlari tomonidan tasdiqlanishi belgilab qo'yildi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyatiga bevosita bog'liq bo'lgan hamda to'liq mahalliy byudjetlar ixtiyorida qoldiriladigan daromad turlari kengaytirildi. Shu bilan bir qatorda, Mahallabay ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i va yer solig'ini yig'ish ko'rsatkichlarini oshirish orqali yangi ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish uchun qo'shimcha mablag'larni jalb qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.12.2022-yildagi PQ-458-son "Mahalla byudjeti tizimini joriy etish orqali mahallalarning moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori qabul qilindi<sup>1</sup>. Mahallalar tomonidan jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i va yer solig'ini (keyingi o'rinlarda — mol-mulk va yer solig'i) aholining soliq to'lash savodxonligini oshirish orqali undirishga ko'maklashish va har bir mahalla o'zining muammosini mustaqil hal etishi uchun 2023-yil 1-yanvardan boshlab, Respublikaning 14 ta hududida "Mahalla byudjeti" tizimi huquqiy eksperiment tariqasida joriy etildi (1-jadval).

Mahalliy byudjetlar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda, birinchi navbatda, mahalliy byudjet daromadlarining shakllanish mexanizmi, mahalliy byudjet daromadlari tarkibi va ulushini tahlil qilish, hududlar iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish va undan oqilona foydalanish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida byudjet masalasi juda muhim va murakkab masala bo'lib hisoblanadi. Har bir hududning rivoji, aholisining turmush sharoiti, ijtimoiy himoya, kam ta'minlangan

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.12.2022 yildagi PQ-458-son "Mahalla byudjeti tizimini joriy etish orqali mahallalarning moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori, <https://lex.uz/docs/6326672>


oila va shaxslarni etarli darajada ijtimoiy himoya qilish, har bir hududdagi davlat hokimiyati organlarining moliyaviy masalalarini to'g'ri hal qila bilishga bog'liqdir. Bunda mahalliy byudjetlarga tushadigan soliq va yig'implarning turi, miqdorini belgilash alohida ahamiyat kasb etadi.

1-jadval

"Mahalla byudjeti" tizimi joriy etilgan tumanlar<sup>2</sup>

T/r	Hudud nomi	Tuman nomi
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Beruniy
2.	Andijon viloyati	Andijon
3.	Buxoro viloyati	Olot
4.	Jizzax viloyati	Zomin
5.	Qashqadaryo viloyati	Qarshi
6.	Navoiy viloyati	Karmana
7.	Namangan viloyati	Uychi
8.	Samarqand viloyati	Urgut
9.	Surxondaryo viloyati	Jarqo'rg'on
10.	Sirdaryo viloyati	Sayxunobod
11.	Toshkent viloyati	Bo'ka
12.	Farg'ona viloyati	Bag'dod
13.	Xorazm viloyati	Bog'ot
14.	Toshkent shahri	Uchtepa

Respublikamiz soliq tizimini takomillashtirishda turli hokimiyat organlarining soliqlar va yig'implar bo'yicha vakolatlarini yanada aniqlashtirish va bunda mahalliy davlat hokimiyati idoralarning bu boradagi vakolatlarini oshirish muhim yo'nalish qilib belgilanishi lozim.

1-rasm. Mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlarining o'zgarish dinamikasi<sup>3</sup> (mlrd, so'm)

Mahalliy byudjetlar daromadini oshirish, xarajat manbalarini izlab topish, ularning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirib borish dolzarb masalalardan biridir. Mahalliy byudjetlarning daromad bazasi hududlarda yaratilayotgan yalpi hududiy mahsulot darajasi, daromadlarning doimiy va bir

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.12.2022-yildagi PQ-458-son "Mahalla byudjeti tizimini joriy etish orqali mahallalarning moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori, <https://lex.uz/docs/6326672>

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining tegishli yillar bo'yicha ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

maromda tushishi bilan bevosita bog'liqdir. Mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishning ichki zahiralari hududlarda ishlab chiqarishning rivojlanishi, joylarda iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Mahalliy boshqaruv organlari faoliyatini to'g'ri tashkil etish har bir hududni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

2-jadval

**2015-2023 yillarda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlarida mahalliy soliqlarning ahamiyati, (foizda)<sup>4</sup>**

Ko'rsatkichlar	2015-yil	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Davlat maqsadli jamg'armalar daromadlarisiz-jami	100	100	100	100	100	100	100	100	100
<b>Shundan</b>									
Mahalliy soliqlar jami;	11,3	11,9	11,5	7,2	4,2	3,2	3,9	4,0	4,3
Mol-mulk solig'i	3,8	4,0	4,3	3,3	2,1	1,5	1,5	2,4	1,8
Yer solig'i	2,1	2,4	2,2	1,9	2,1	1,8	2,4	1,6	2,5
Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	2,0	1,8	1,4	-	-	-	-	-	-
Benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq	3,4	3,7	3,6	2,0	-	-	-	-	-

Tahlil etilayotgan yillarda mahalliy byudjetlar daromadlari mahalliy byudjetlar xarajatlariga nisbatan doimiy ravishda kamni tashkil etmoqda. Ayniqsa so'nggi yillarda ularning orasidagi tafovut sezilarli ravishda farqlanganligini, ya'ni xarajatlarning keskin oshib ketganligini ko'rishimiz mumkin.

3- jadval

**2022-2023-yillar mobaynida O'zbekiston Respublikasi mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlarining o'zgarishi dinamikasi (mlrd.so'm)<sup>5</sup>**

№	Hududlar	2022-yil		Byudjet-lararo tartibga soluvchi transfertlar	2023-yil		Byudjetlararo tartibga soluvchi transfertlar
		Daromadlar	Xarajatlar		Daromadlar	Xarajatlar	
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	2356,2	3874,2	1518,0	2703,3	5375,8	2672,4
2	Andijon viloyati	3059,4	4741,6	1682,3	3802,7	6608,2	2805,5
3	Buxoro viloyati	2904,0	3346,3	442,3	3817,2	4463,1	645,9
4	Jizzax viloyati	1727,2	2551,8	824,6	2184,9	3469,3	1284,4
5	Qashqadaryo viloyati	3483,0	5534,3	2051,3	4561,2	8380,2	3819,0
6	Navoiy viloyati	2186,3	2186,3	-	2993,6	2993,6	-
7	Namangan viloyati	2903,2	4608,0	1704,8	3713,4	6613,4	2899,9
8	Samarqand viloyati	3955,8	963,8	1008,0	4958,8	7155,1	2196,3
9	Surxondaryo viloyati	2466,9	4453	1987,0	3042,3	6291,2	3248,9
10	Sirdaryo viloyati	1104,5	1777,7	673,2	1406,1	2492,3	1086,2
11	Toshkent viloyati	4378,9	4378,9	-	5866,2	5866,2	-
12	Farg'ona viloyati	4242,5	5619,9	1377,4	5437,8	7618,8	2181,0
13	Xorazm viloyati	2220,6	3067,2	846,6	2719,2	4160,6	1441,4
14	Toshkent shahri	6044,7	6044,7	-	7739,3	7739,3	-
	<b>Jami</b>	<b>43033,2</b>	<b>57148,7</b>	<b>14115,6</b>	<b>59946,0</b>	<b>79226,9</b>	<b>24280,9</b>

2020-yildan boshlab mahalliy byudjetni samarali shakllantirish va undan oqilona foydalanish yuzasidan mahalliy hokimiyat va mahalliy kengashlarga bir qator vakolatlar berildi [10].

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining tegishli yillar bo'yicha ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining tegishli yillar bo'yicha ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

Jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlari tegishli ravishda:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlaridan, tumanlar va shaharlar byudjetlaridan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan byudjet mablag‘larining cheklangan miqdorlarini hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetidan, viloyatlar viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahri shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlarning cheklangan miqdorlarini tasdiqlaydi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlar viloyat byudjetlari, Toshkent shahri shahar byudjeti, tumanlar va shaharlar byudjetlari daromadlarining prognozini ma‘qullaydi;


Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi.

Mahalliy byudjetlar O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi hamda mahalliy hokimiyatlarning faoliyat ko‘rsatishlarida muhim moliyaviy manba bo‘lib hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar tizimi mahalliy talab-ehtiyojlarni to‘laroq qondirishni hamda davlatning markazlashgan tartibda amalga oshiradigan tadbirlarini bajarilishi bilan chambarchas bog‘langan holda ijro etishga imkon yaratib beradi. Mahalliy hokimiyat organlariga mahalliy byudjet daromadlarini ko‘payishi va resurslarni tejamkorlik bilan sarflanishi vazifasi yuklatiladi.

Mahalliy byudjetlar potentsialini mustahkamlash maqsadida qonuniy tarzda nafaqat mahalliy soliq va to‘lovlarning tarkibini aniq belgilab qo‘yishi, balki respublika ahamiyatidagi davlat soliqlarining mahalliy byudjetlar daromadlaridagi ulushlari dinamikasini tahlil qilish va uni yanada takomillashtirish ham zarurdir.

Ma‘lumki, bugungi kunga kelib mol-mulk va yyer soliqlari mahalliy soliqlar sifatida e‘tirof etiladi. Tahlil etilayotgan yillarda mahalliy byudjetlarning daromad manbai hisoblangan mahalliy soliqlarning ulushi yuqori emas.

Mahalliy soliqlarning ulushi tahlil etilayotgan yillarda o‘rtacha 8,2 foizni tashkil etib so‘nggi yillarda kamayish tendentsiyasiga ega bo‘lmoqda. Mol-mulk solig‘ining ulushi 2015-yilda 3,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa 2020-yilga kelib 1,5 foizni tashkil etgan va kamayish kuzatilgan.



2-rasm. Mahalliy byudjetlar daromadlari dinamikasi<sup>6</sup>


Yyer solig‘ining ulushi 2015-yilda 2,1 foizni tashkil etgan bo‘lsa 2020-yilga kelib ham 1,8 foizni tashkil etgan. Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i va benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning respublika soliqlariga birlashtirilishi mahalliy byudjet daromadlarida mahalliy soliqlarning kamayishiga olib kelgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, mahalliy byudjet daromadlarini faqat o‘z daromadlari ya‘ni, mahalliy soliqlar hisobiga shakllantirish imkoniyati kamaygan.

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining tegishli yillar bo‘yicha ma‘lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

Bizningcha, bugungi kunda mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash uchun soliqqa oid qonunchilik asosida mahalliy soliqlar ro'yxatini kengaytirish lozim.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tahlil etilayotgan yillarda ayrim hududlar mahalliy byudjet daromadlari mahalliy byudjet xarajatlaridan kamni tashkil etmoqda. Bu esa o'z navbatida, mazkur hududlar mahalliy byudjeti xarajatlarini moliyalashtirish uchun qo'shimcha moliyaviy resurslarga ehtiyojni yuzaga keltiradi. 2020-yilda mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlari 2019-yilga nisbatan kamaygan bo'lsada, lekin yuqori byudjetdan moliyaviy yordam oluvchi hududlar soni ortmoqda. Mahalliy byudjetlar mahalliy hokimiyatlarning iqtisodiy imkoniyatidir. Mahalliy byudjet daromadlari qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik ushbu hudud aholisi farovonligi yuqori bo'ladi.

Jadval ma'lumotlari tahlilidan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.06.2017-yildagi PF-5075-son "Mahalliy byudjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.06.2017-yildagi 445-son "Mahalliy byudjetlarning daromadlar bazasini kengaytirish zahiralari aniqlash ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida ko'zda tutilgan vazifalarning amalga oshirilishi natijasida mahalliy byudjetlarning daromad qismi birgina 2023-yilda 2022-yilga nisbatan qariyb 17 trln. so'mga ko'p bo'lishi prognoz qilinmoqda (2-rasm).



**3-rasm. 2022-2023-yillar mobaynida O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetida byudjetlararo tartibga soluvchi transfertlarning o'zgarishi dinamikasi (mlrd.so'm)<sup>7</sup>**

Shu bilan birga, mahalliy byudjetlarning daromad va xarajatlarining o'sib borishi asosida byudjetlararo tartibga soluvchi transfertlarning ulushi ham tobora o'sayotganligiga guvoh bo'lamiz (3-rasm). 2021-yilda byudjetlararo tartibga soluvchi transfertlar 10443,0 mlrd.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilda 24280,9 mlrd. so'mni tashkil qilishi kutilmoqda, yoki bu ko'rsatkich 2021-yilga nisbatan qariyb 2,3 baravar o'sgan.

Hududlar orasida faqatgina, uchta hudud Navoiy, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida byudjetlararo tartibga soluvchi transfertlardan foydalanilmaydi. Umuman olganda, mahalliy byudjetlarning daromadlari bazasini mustahkamlash yaqin istiqbolda qolgan hududlarda ham byudjetlararo tartibga soluvchi transfertlarni kamaytirishga xizmat qilishi, hududlarni donor hududlarga aylantirishga xizmat qilishi lozim.

Bizning fikrimizcha, mahalliy byudjet daromadlari barqarorligini ta'minlash mahalliy hokimiyat organlarining tadbirkorlikni rivojlantirishga, xususan, kichik va o'rta biznes sohasida manfaatdorligini oshirishdan dalolat beradi, bunda davlatning ma'muriy-hududiy birliklari moliyaviy holatini yaxshilash va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining o'z daromad bazasini rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi. Shundan kelib chiqqan holda, birgina Sirdaryo viloyati misolida tahlil qiladigan bo'lsak, hududni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan har tomonlama rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.05.2022-yildagi 242-son "2022-2026-yillarda sirdaryo viloyati hududlarini

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining tegishli yillar bo'yicha ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori qabul qilingan. Mazkur qarorda Sirdaryo viloyatida 2022-2026-yillarda yalpi hududiy mahsulot hajmini 1,6 baravar, sanoat mahsulotlari hajmini 1,6 baravar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni 1,3 baravar, xizmatlar hajmini 3,2 baravar hamda qurilish ishlari hajmini 1,5 baravarga oshirishni nazarda tutuvchi shahar va tumanlar kesimidagi maqsadli ko'rsatkichlar parametrlari tasdiqlangan (Qaror, 2022). 2023-yilda Sirdaryo viloyatining Yalpi hududiy mahsuloti 22,9 trln. so'm atrofida bo'lishi ko'zda tutilgani holda, o'sish ko'rsatkichlari 2023-yilda sanoatda 109,1 %, qishloq xo'jaligida 103,3% va xizmat ko'rsatish sohasida 106,6% ni tashkil qilishi rejalashtirilgan.

## 4-jadval

**Sirdaryo viloyati tuman va shaharlarining  
"o'sish nuqtalari" va "drayver" sohalari (Qaror, 2022)**

T/r	Hudud nomi	Tuman (shahar)larning "o'sish nuqtalari" va "drayver sohalari"
1.	Sirdaryo viloyati	Yengil sanoat, qurilish materiallari ishlab chiqarish, yo'l bo'yi infratuzilmani rivojlantirish, chorvachilik, parrandachilik, issiqxona, sholichilik, baliqchilik
2.	Guliston shahar	Yengil sanoat, qurilish materiallari ishlab chiqarish, mehmonxona xizmati, tibbiy va ta'lim xizmati, savdo, maishiy xizmatlar
3.	Shirin shahar	Qurilish materiallari ishlab chiqarish, issiqxona xo'jaligi
4.	Yangier shahar	Yengil sanoat, mebel sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish, tibbiy turizm
5.	Boyovut tumani	Yengil sanoat, qurilish materiallari ishlab chiqarish, chorvachilik, issiqxona xo'jaligi, sholichilik
6.	Guliston tumani	Yengil sanoat, ekoturizm, issiqxona, chorvachilik
7.	Mirzaobod tumani	Yengil sanoat, baliqchilik, anorchilik
8.	Oqoltin tumani	Yengil sanoat, meva-sabzavotni qayta ishlash, yo'l bo'yi infratuzilmasini rivojlantirish, poliz ekinlarini etishtirish
9.	Sardoba tumani	Parrandachilik, chorvachilik, supurgi yetishtirish
10.	Sayxunobod tumani	Yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati, yo'l bo'yi infratuzilmasini rivojlantirish, chorvachilik, baliqchilik, issiqxona xo'jaligi, sholichilik
11.	Sirdaryo tumani	Farmatseftika va kimyo sanoati, savdo logistika, chorvachilik, sholichilik
12.	Xovos tumani	Qurilish materiallari ishlab chiqarish, uzumchilik, chorvachilik, poliz ekinlari va sabzavot mahsulotlari yetishtirish

2022-2026-yillarda Sirdaryo viloyati mahalliy byudjetiga tushumlar jami 7055,5 mlrd. so'm, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari bo'yicha ajratiluvchi kredit mablag'lari 2600 mlrd. so'mni tashkil qilishi rejalashtirilgan. Rejalashtirilgan tadbirlarning amalga oshirilishi hisobiga Sirdaryo viloyatida ishsizlik darajasi va kambag'allikka butunlay barham berish maqsad qilingan. Shu bilan bir qatorda, 2022-2026 yillarda "Fuqarolar byudjeti" doirasida 330 mlrd. so'm mablag' sarflash yuqorida tilga olib o'tilgan Qarorda ko'zda tutilgan.

2023-yilda viloyat byudjetining daromad qismi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (51%), yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i (13%), noruda qurilish materiallari uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq (8%), jarimalar (7%), aksiz solig'i (7%), davlat bojlari (6%), yuridik shaxslar mol-mulk solig'i (4%) va boshqa daromadlar hisobidan shakllanadi.

2023-yilda viloyat mahalliy byudjeti mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag' miqdori 2 066,7 mlrd so'mni tashkil qiladi. Eng ko'p mablag' oluvchi tashkilotlar – sog'liqni saqlash sohasi (40%), irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (7%), Prezident ta'lim muassasalari (5%), "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturi va tashabbusli byudjet uchun (5%), Xalq ta'limi boshqarmasi (5%), Sport (3%) va Madaniyat boshqamasi (1%) hisoblanadi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Sirdaryo viloyati mahalliy byudjetida byudjetlararo tartibga soluvchi transfertlar 2022 yilga nisbatan 2023 yilda qariyb 61,3 foizga o'sgan. Bunday vaziyatni tartibga solish uchun Sirdaryo viloyati hududlarining "o'sish nuqtalari" va "drayver" sohalari aniqlashtirish talab qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.05.2022-yildagi 242-son "2022-2026-yillarda sirdaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarorida Sirdaryo viloyati tuman va shaharlarining "o'sish nuqtalari" va "drayver" sohalari belgilab berilgan.

Hozirda byudjetlararo tartibga solish amaliyoti ayrim mahalliy byudjetlar daromadlarining asosiy qismini shakllanishini ta'minlamogda. Boshqaruvchi daromadlarning bunday miqdorda bo'lishi mahalliy hokimiyat organlarining o'z mas'uliyatlarini yuqori darajada his qilmaslikka olib keladi, fikrimizcha, bu holat iqtisodiyotni erkinlashtirish siyosatiga ko'p ham mos kelavermaydi.

### Xulosa va takliflar.

Mahalliy byudjetlarning daromadlarini shakllantirish jarayonida soliqlarning ahamiyatini o'rganish hamda mahalliy byudjet daromadlari tarkibini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

➤ mahalliy byudjetlarning o'z daromadlari manbaini oshirish maqsadida hududlarni barqaror rivojlantirish drayverlari va "o'sish nuqtalari"ni belgilab olish siyosatini izchil davom ettirish, bu borada mahalliy davlat idoralarining tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash;

➤ hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarishni rag'batlantirish maqsadida mahallalarning o'rnini kengaytirish, bunda mahallalar kesimida bandlikni ta'minlash, qo'shimcha daromad manbalarini ishga solish imkoniyatlarini doimiy baholab borish tizimini joriy qilish;

➤ mahalla byudjet tizimini keyingi moliya yilidan boshlab, mamlakatimizning boshqa hududlarida ham keng joriy qilish, tushumlar o'sishiga erishgan mahalla va hududlarni moliyaviy rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish va shu kabilar.

Bunday chora-tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatimiz hududlarining moliyaviy jihatdan barqaror rivojlanishiga, aholi turmush farovonligini oshishiga xizmat qiladi.

### Adabiyotlar/Литература/Reference:

Burkhanov Aktam (2020). "Худудларда маҳаллий бюджетлар даромадлар манбаини кенгайтириш йўллари (Қашқадарё вилояти мисолида)." Архив научных исследований 22.

Farmon (2022) O'zbekiston Respublikasi Rrezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi

Qaror (2022) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.05.2022 yildagi 242-son "2022-2026 yillarda sirdaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" <https://lex.uz/uz/docs/5998434#6000010>

Абдувоҳидов А.А. (2021) Ислохотларнинг Ҳозирги Босқичида Тadbirkorликни Ривожлантириш Аҳоли Фаровонлигини Оширишнинг Муҳим Асоси Сифатида //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – Т. 1. – №. 6. – С. 388-399.

Abdovokhidov A.A. (2021) et al. Mechanisms of import substitution policy in the region //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – Т. 11. – №. 12. – С. 45-59.

Абдуваҳидов А. А. и др. (2022) Хорижий инвестициялар ва уларни жалб қилишда маҳаллий ҳокимликлар фаолиятини баҳолаш //Та'лим ва ривожланish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – Т. 2. – №. 10. – С. 20-24.

Исламқулов А.К. (2016) Маҳаллий бюджетлар даромадлари барқарорлигини таъминлаш масалалари // "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 4, июль-август, [http://iqtisodiyot.uz/sites/default/files/maqolalar/43\\_A\\_Islamqulov.pdf](http://iqtisodiyot.uz/sites/default/files/maqolalar/43_A_Islamqulov.pdf)

Усмонов Қ.А. (2014) Бюджет даромадларини режалаштириш жараёни, усуллари ва уларни такомиллаштириш йўналишлари // "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 4, июль-август, [http://iqtisodiyot.uz/sites/default/files/maqolalar/16\\_Q\\_Usmonov.pdf](http://iqtisodiyot.uz/sites/default/files/maqolalar/16_Q_Usmonov.pdf)

Тошматов Ш.А. (2017) Иқтисодиётни ривожлантириш ва либераллаштиришда давлат бюджети даромадлари манбаларини кенгайтириш йўналишлари // Ўзбекистонда молия секторини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари тўплами. 2017 йил 10 ноябрь. –Т.: ТДИУ, -б.27-28.

Хайриддинов А.Б. (2011) Маҳаллий бюджетлар даромад базаларининг барқарорлигини таъминлаш йўллари. и.ф.н. илмий даражасини олиш учун тайёрланган дисс. автореферати. –Т.: –б. 13.